S. Fridman inson huquqlarini “negativ” va “pozitiv” huquqlarga qat’iy ajratishni yetarli emas, deb hisoblaydi (Fredman, 2008). Uning fikricha, fuqarolik va siyosiy huquqlar ham, ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar ham davlat uchun bir vaqtning o‘zida tiyilish va ijobiy harakat qilish majburiyatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, shaxsiy hayot daxlsizligi davlat organining asossiz aralashmasligini talab qiladi. Biroq shaxsiy ma’lumotlarni uchinchi shaxslarning g‘ayriqonuniy ta’siridan himoya qiladigan qonunchilik va institutsional mexanizmlarni yaratishni ham taqozo etishi mumkin. Shu bois huquqning pozitiv yoki negativ xususiyatini faqat davlatdan resurs talab qilinishi yoki qilinmasligi bilan belgilash metodologik jihatdan to‘liq emas.

D. Ksenos Yevropa inson huquqlari tizimi misolida davlat majburiyatlarining klassik “aralashmaslik” talabidan ancha keng ekanini ko‘rsatadi. Davlatning o‘zi huquqqa bevosita tajovuz qilmagan holda ham, muayyan vaziyatlarda, shaxsni uchinchi shaxslardan keladigan xavflardan muhofaza qilish, samarali huquqiy tartib-taomillarni tashkil etish yoki huquqdan foydalanish uchun zarur tashkiliy choralarni ko‘rish majburiyati yuzaga kelishi mumkin (Xenos, 2012). L. Lavrisen esa Yevropa inson huquqlari sudi amaliyotini tahlil qilib, negativ va pozitiv majburiyatlar o‘rtasidagi chegara har doim ham qat’iy emasligini ko‘rsatadi. Uningcha, bir huquqning samarali ta’minlanishi ba’zan davlatdan ham aralashmaslikni, ham huquqni muhofaza qiladigan norma, institut yoki protsedura yaratishni talab etadi (Lavrysen, 2016).

Shundan kelib chiqib, bizningcha, “negativ – pozitiv majburiyatlar” dixotomiyasi davlatning inson huquqlariga munosabatini dastlabki nazariy darajada tavsiflash uchun foydali, ammo milliy konstitutsiyaviy majburiyatlarning yuridik tabiati va ijro mexanizmini to‘liq ifodalamaydi. Chunki bir huquqning o‘zi bo‘yicha davlat zimmasida turli mazmundagi bir nechta majburiyat mavjud bo‘lishi mumkin: huquqqa asossiz aralashmaslik, uchinchi shaxslardan himoya qilish, institut va protsedura yaratish, ishni adolatli ko‘rib chiqish, buzilgan huquqni tiklash. Ularning har biri huquqning real amal qilishiga xizmat qilsa-da, yuridik asosi, subyekti, vaqt nuqtayi nazaridan yo‘nalishi va bajarilmasligining huquqiy oqibatlari bir xil emas.

Inson huquqlari sohasida davlat majburiyatlarini tushuntirish uchun *“respect-protect-fulfil”* modeli keng qo‘llaniladi. *Respect* davlatdan shaxsning huquqiy sohasiga asossiz aralashmaslik va mavjud huquqiy imkoniyatni hurmat qilishni, *protect* huquq egasini uchinchi shaxslar yoki boshqa real xavflardan muhofaza qilishni, *fulfil* esa huquqdan amaliy foydalanish uchun zarur qonunchilik, institutsional, tashkiliy va boshqa ijobiy choralarni ko‘rishni ifodalaydi. BMT Inson huquqlari bo‘yicha qo‘mitasining 31-son Umumiy sharhida davlatning pakt bo‘yicha majburiyatlari tegishli qonunchilik, sud, ma’muriy, ta’limiy va boshqa choralarni ko‘rishni ham qamrab olishi qayd etilgan (United Nations Human Rights Committee, 2004).

Biroq mazkur triadani milliy konstitutsiyaviy huquqqa to‘g‘ridan to‘g‘ri va mexanik ko‘chirish muayyan terminologik va metodologik muammolarni keltirib chiqaradi. Avvalo, *“fulfil”* atamasini o‘zbek yuridik tilida oddiy “ta’minlash” deb ifodalash unchalik to‘g‘ri emas. Chunki “ta’minlash” milliy konstitutsiyaviy-huquqiy kontekstda huquqni hurmat qilish, kafolatlash, muhofaza qilish, amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratish va buzilgan huquqni himoya qilishni qamrab oluvchi kengroq kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli *“respect-protect-fulfil”* modeli doirasida fulfilni *“huquqni amalga oshirish uchun zarur faol choralarni ko‘rish”* mazmunida tushunish aniqroq bo‘ladi.

Ikkinchidan, *protect* va *fulfil* doirasida yuridik tabiati turlicha bo‘lgan vazifalar bir-

lashib ketadi. Huquqbuzarlik xavfining oldini olish, davlat institutini tashkil etish, shaxsni qaror qabul qilish jarayonida eshitish, sudga murojaat qilish imkoniyatini ta'minlash yoki g'ayriqonuniy qaror oqibatini bartaraf etish bir xil huquqiy funksiya emas. Shu bois "*respect-protect-fulfil*" modeli umumiy metodologik asos sifatida saqlanishi mumkin. Ammo milliy konstitutsiyaviy-huquqiy tahlil uchun uni yuridik jihatdan konkretlashtirish zarur.

Ushbu nuqtayi nazardan davlatning inson huquqlariga oid konstitutsiyaviy majburiyatlarini beshta funksional turga ajratish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bunday tasnif huquqning abstrakt "pozitiv" yoki "negativ" xususiyatidan emas, balki davlatdan talab etiladigan harakatning yuridik vazifasi va shaxs uchun kutilayotgan huquqiy natijasidan kelib chiqadi.

Birinchi turi bu – *tiyilish majburiyati*. U davlat va uning organlaridan shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari sohasiga Konstitutsiya va qonunda nazarda tutilmagan, qonuniy maqsadga ega bo'lmagan yoki mutanosib bo'lmagan aralashuvdan tiyilishni talab qiladi. Bu klassik negativ majburiyatga eng yaqin shakldir. Biroq tiyilish majburiyati davlatning mutlaq passivligini anglatmaydi. Davlat organi huquqqa asossiz aralashmaslik bilan birga, o'z vakolatini qonuniy, aniq va inson huquqlari mazmuniga muvofiq tarzda amalga oshirishi shart. Konstitutsiyaning 20-moddasida huquqiy ta'sir choralari mutanosib bo'lishi va inson bilan davlat organlari o'rtasidagi munosabatlarda qonunchilikdagi ziddiyat hamda noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinishi haqidagi qoidalar ushbu majburiyatning milliy konstitutsiyaviy mazmunini boyitadi (Republic of Uzbekistan, 2023).

Ikkinchi turi bu – *muhofaza-profilaktik majburiyat*. U davlatdan huquq buzilganidan keyin reaksiya bildirishnigina emas, yetarlicha aniq va oldindan ko'rish mumkin bo'lgan real xavflarning oldini olishga qaratilgan choralarni ham talab qiladi. Biroq mazkur majburiyat davlatni har qanday xavfdan shaxsni mutlaq himoya qiluvchi kafilga aylantirmaydi. Majburiyatning hajmi xavfning realligi, davlat organining u haqda bilgani yoki bilishi lozim bo'lgani, qonuniy vakolat va amaliy imkoniyat, shuningdek, kutilayotgan choraning mutanosibligi bilan belgilanishi lozim.

Yevropa inson huquqlari sudining "Usmon-Buyuk Britaniya" ishida davlatning hayotni muhofaza qilish bo'yicha pozitiv majburiyatini baholashda davlat organlari muayyan shaxs hayotiga nisbatan uchinchi shaxsning jinoiy harakatlaridan kelib chiqadigan real va bevosita xavfni bilgan yoki bilishi lozim bo'lgani hamda o'z vakolatlari doirasida oqilona choralarni ko'rmagani kabi mezonlar shakllangan (Osman v. the United Kingdom, 1998). Bu yondashuv profilaktik majburiyatni natijaning mutlaq kafolati emas, balki xavfga nisbatan huquqiy jihatdan asosli va oqilona chora ko'rish talabi sifatida tushunishga imkon beradi.

"Oneryıldız-Turkiya" ishi davlatning hayot uchun xavfli faoliyat sohasida tegishli normativ va ma'muriy tizimni yaratishi zarurligini yanada yaqqol ko'rsatdi (Öneryıldız v. Turkey 2004). Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, muhofaza majburiyati faqat huquqni muhofaza qiluvchi organning konkret xatti-harakatidan iborat emas. U xavfni oldindan baholash, huquqiy tartibga solish, nazorat qilish va zarur axborotni berish kabi institutsional choralarni ham qamrab olishi mumkin.

Uchinchi turi bu – *normativ-institutsional majburiyat*. U inson huquqining amalga oshishi uchun zarur qonunchilik asosi, vakolatli organ, protsedura, infratuzilma va boshqa huquqiy-tashkiliy sharoitlarni shakllantirishni qamrab oladi. Ushbu majburiyat ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarda ayniqsa yaqqol namoyon bo'lsa-da, faqat ularga xos emas. Odil sudlov huquqi mustaqil sud tizimi, protsessual qonunchilik va sud qarorlarini ijro etish mexanizmlarini, saylov huquqi saylov organlari va huquqiy protseduralarni, axbo-

rot olish huquqi esa ochiqlik va axborotdan foydalanish mexanizmlarini talab etadi.

V. Martzoku pozitiv majburiyatlar va resurslar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilib, ayrim huquqlarning amaliy ta’minlanishi davlatdan resurs taqsimoti va muayyan ijtimoiy dasturlarni ham talab qilishi mumkinligini ko‘rsatadi (Martzoukou, 2015). Biroq resurs talabining mavjudligi majburiyatning yuridik tabiatini avtomatik ravishda yo‘qotmaydi. Aksincha, u majburiyatning qaysi qismi darhol bajarilishi, qaysi qismi progressiv amalga oshirilishi va davlatdan qanday darajada oqilona choralar kutilishini aniqlash zaruratini keltirib chiqaradi.

BMTning Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo‘yicha qo‘mitasi sharhida paktdan kelib chiqadigan majburiyatlarda harakat majburiyatlari (obligations of conduct) va natija majburiyatlari (obligations of result) mavjudligini ko‘rsatib, huquqlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish prinsipi davlatni barcha joriy majburiyatlardan ozod qilmasligini ta’kidlaydi (Committee on Economic, Social and Cultural Rights, 1990). Xususan, kamsitmaslik, huquqlarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan aniq choralar ko‘rish va mavjud resurslardan samarali foydalanish kabi talablar davlatning darhol harakat qilish majburiyatini keltirib chiqarishi mumkin.

To‘rtinchi turi bu – *protsessual majburiyat*. Zamonaviy inson huquqlari doktrinasida moddiy huquqning samaradorligi ko‘p hollarda uning protsessual kafolatlari bilan uzviy bog‘liq. Shaxsni eshitish, muhim dalillarni tekshirish, qarorni asoslantirish, ishni oqilona muddatda ko‘rib chiqish, zarur axborotni taqdim etish, qaror ustidan shikoyat qilish va mustaqil sud nazoratini ta’minlash kabi talablar huquqning real amal qilishiga xizmat qiladi. Shu ma’noda protsessual majburiyat moddiy huquqdan ajralgan texnik tartib emas, balki uning amaliy ta’sirchanligini ta’minlaydigan konstitutsiyaviy kafolatdir.

A. Mubrey Yevropa konvensiyasi bo‘yicha pozitiv majburiyatlarning sud amaliyotidagi rivojini tahlil qilar ekan, ular samarali tergov o‘tkazish, shaxsni xususiy subyektlar tajovuzidan himoya qilish, adolatli sud muhokamasi va samarali huquqiy himoya vositalarini ta’minlash kabi turli protsessual shakllarda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi (Mowbray, 2004). “Eriy-Irlandiya” ishida Yevropa inson huquqlari sudi konvensiya kafolatlari “nazariy yoki xayoliy” emas, u “amaliy va samarali” bo‘lishi lozimligini ta’kidlab, muayyan sharoitlarda sudga samarali kirish imkoniyatini ta’minlash davlatdan ijobiy choralar ko‘rishni talab qilishi mumkinligini ko‘rsatdi (Airey v. Ireland, 1979). Bu yondashuv protsessual kafolatni inson huquqining real amal qilishiga xizmat qiladigan mustaqil davlat majburiyati sifatida tushunishni kuchaytiradi.

Beshinchi turi bu – *himoya-tiklovchi majburiyat*. U huquq buzilganidan keyin shaxsning huquqiy holatini imkon qadar tiklash, g‘ayriqonuniy oqibatni bartaraf etish, huquqni buzgan qarorni bekor qilish yoki o‘zgartirish, zarur hollarda zararni qoplash va takroriy buzilishning oldini olishga qaratilgan huquqiy choralarni qamrab oladi. Bu yerda huquqni tiklash bilan yuridik javobgarlikni farqlash muhim: tiklash huquq egasiga qaratilgan bo‘lsa, yuridik javobgarlik huquqbuzar subyektga qaratilgan va alohida moddiy hamda protsessual asoslarga tayanadi.

A.S. Mordoves inson huquqlarini ta’minlashning ijtimoiy-yuridik mexanizmini huquqni hurmat qilish, amalga oshirish uchun sharoit yaratish, muhofaza qilish va himoya qilishga qaratilgan o‘zaro bog‘liq vositalar tizimi sifatida tadqiq etgan (Mordovets, 1997). Y.N. Xazov esa konstitutsiyaviy kafolatlarni huquq va erkinliklarni amalga oshirish, muhofaza qilish va buzilgan huquqlarni tiklash uchun zarur huquqiy vositalar bilan bog‘laydi (Khazov, 2010). Ushbu qarashlar himoya-tiklovchi majburiyatni inson huquqlarini ta’minlash mexanizmining oxirgi, ammo mustaqil ahamiyatga ega bo‘lgan funksional bo‘g‘ini sifatida ko‘rishga asos beradi.

Taklif etilayotgan tasnif davlat majburiyatlarini huquqning formal "pozitiv" yoki "negativ" xususiyatiga ko‘ra emas, ularning funksional vazifasi va huquq egasi uchun kutilayotgan yuridik natijaga ko‘ra ajratadi. Tiyilish majburiyati g‘ayriqonuniy aralashuvni cheklaydi; muhofaza-profilaktik majburiyat xavfni oldindan bartaraf etishga; normativ-institutsional majburiyat huquqning amal qilish sharoitlarini yaratishga; protsessual majburiyat adolatli protseduraga; himoyatiklovchi majburiyat esa buzilgan huquqiy holatni tiklashga qaratilgan. Ular muayyan huquqni ta’minlashda bir vaqtning o‘zida amal qilishi mumkin.

Shu bilan birga, konstitutsiyaviy majburiyatning mavjudligini aniqlash davlatdan har qanday ijtimoiy ehtiyojni qondirishni talab qilish degani emas. Bizningcha, pozitiv davlat majburiyati haqida yuridik xulosaga kelishda kamida quyidagi holatlar mavjud bo‘lishi lozim: talab Konstitutsiyadagi muayyan huquq, prinsip yoki davlat vazifasi bilan bog‘lanishi; huquqqa real xavf yoki huquqiy ehtiyoj mavjud bo‘lishi; talab etilayotgan harakat vakolatli davlat subyektining kompetensiyasi doirasida bo‘lishi; majburiyatning asosiy mazmuni yetarli darajada huquqiy aniqlanishi; davlat tomonidan talab etilayotgan chora obyektiv jihatdan amalga oshirilishi mumkin bo‘lishi. Bu mezonlar konstitutsiyaviy nazoratni davlat siyosati o‘rniga qo‘yishdan saqlaydi va bir vaqtning o‘zida Konstitutsiyadan kelib chiqadigan aniq yuridik talablarni samarali himoya qilish imkonini beradi.

Konstitutsiyaviy majburiyat mavjudligi aniqlanganidan keyin ikkinchi masala uning lozim darajada bajarilganligini baholashdir. Majburiyatni bajarishni faqat "davlat biror chora ko‘rdimi?" degan savol bilan o‘lchash yetarli emas. Choraning huquqiy asosi, subyekti, vaqti, maqsadga erishishga yaroqliligi, yetarliligi, oqilonaligi va shaxs uchun keltirib chiqargan natijasi baholanishi lozim.

Birinchidan, qonuniylik mezoni davlat chorasining Konstitutsiya va qonunga asoslanganligini talab qiladi. Inson huquqini ta’minlash maqsadi davlat organiga qonunda nazarda tutilmagan vakolatni o‘z ixtiyori bilan yaratish huquqini bermaydi. Pozitiv majburiyat mavjud vakolatni inson huquqlari mazmuniga muvofiq va konstitutsiyaviy maqsadga yo‘naltirilgan holda amalga oshirish talabini kuchaytiradi, ammo vakolatlar taqsimotini inkor etmaydi.

Ikkinchidan, majbur subyektning aniqligi muhim. Konstitutsiyadagi umumiy "davlat ta’minlaydi" formulasi huquqni qo‘llash darajasida kim, qaysi vakolat asosida, qanday tartibda va qaysi muddatda harakat qilishi kerakligi bilan konkretlashtirilmasa, majburiyatning amaliy samaradorligi pasayadi. Inson huquqlarini ta’minlash sohasida "hamma mas’ul, demak, hech kim aniq majbur emas" degan institutsional noaniqlikka yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Uchinchidan, qat’iy vaqt mezoni. Ayrim huquqlarda kechiktirilgan chora o‘z mohiyatiga ko‘ra samarasiz choraga aylanadi. Hayot va sog‘liqqa xavf, bola manfaatlari, shaxsiy erkinlik, sud himoyasi yoki ijtimoiy yordam bilan bog‘liq vaziyatlarda vaqt omili majburiyat mazmunining tarkibiy qismi bo‘lishi mumkin. Shu sababli davlat harakati formal ravishda amalga oshirilgan, ammo huquq uchun ahamiyatli muddat o‘tib ketgan bo‘lsa, uni lozim darajadagi ijro deb baholash har doim ham mumkin emas.

To‘rtinchidan, yaroqlilik va yetarlilik mezonlari farqlanishi lozim. Yaroqlilik tanlangan choraning qo‘yilgan konstitutsiyaviy maqsadga erishishga obyektiv jihatdan qodirligini anglatadi. Yetarlilik esa choraning huquqqa xavf, huquqning ahamiyati va kutilayotgan natijaga mos hajmda bo‘lishini talab qiladi. Davlat biror chora ko‘rganining o‘zi majburiyat bajarilganini anglatmaydi. Sababi, chora formal emas, huquqni real ta’minlashga qobil bo‘lishi kerak.

Beshinchidan, oqilonalik mezoni davlatning mavjud huquqiy va faktik imkoniyatlari, resurslari, muqobil choralar va qaror

qabul qilingan sharoitni hisobga olishni talab qiladi. Davlatdan mutlaq natija talab qilinishi mumkin bo‘lmagan hollarda oqilona va samarali choralar ko‘rilgani asosiy ahamiyat kasb etadi. Biroq resurs cheklanganligi davlatning mutlaq harakatsizligini oqlovchi universal vaj bo‘la olmaydi. Pozitiv majburiyat har doim katta byudjet xarajatini talab qilmaydi: murojaatni belgilangan muddatda ko‘rib chiqish, qarorni asoslantirish, kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik yoki mavjud huquqiy himoya mexanizmini ishga tushirish ham davlatdan faol harakatni talab qiladi.

Janubiy Afrika Konstitutsiyaviy sudining Sog‘liqni saqlash vaziri va “Treatment Action Campaign” tashkiloti o‘rtasidagi ish bo‘yicha qarori mazkur masalani konstitutsiyaviy-huquqiy darajada baholashning muhim namunasidir. Sud davlatdan sog‘liqni saqlash huquqini amalga oshirishga qaratilgan kompleks va muvofiqlashtirilgan dasturni oqilona tashkil etishni talab qildi hamda mavjud choralarning konstitutsiyaviy jihatdan oqilonaligini tekshirdi (Minister of Health and Others v. Treatment Action Campaign and Others, 2002). Bu yondashuv sudning davlat organi o‘rniga eng maqbul ijtimoiy siyosatni tanlamasdan, qabul qilingan choralar Konstitutsiya talab qiladigan oqilona minimumga javob berish-bermasligini baholashi mumkinligini ko‘rsatadi.

Oltinchidan, mutanosiblik mezoni. Davlat pozitiv majburiyatni bajarish jarayonida boshqa shaxslar huquqlari yoki qonuniy manfaatlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, xavfsizlikni ta’minlash, jamoat sog‘lig‘ini muhofaza qilish yoki zaif guruhlarni himoya qilish maqsadida cheklovlar joriy etiladi. Shu sababli ijobiy davlat faoliyati ham konstitutsiyaviy maqsad, obyektiv zarurat va aralashuvning mutanosibligi talablariga javob berishi kerak. R. Aleksi konstitutsiyaviy huquqlarni prinsiplar sifatida talqin qilib, ularni huquqiy va faktik imkoniyatlar doirasida maksimal darajada ro‘yobga chiqarish talabini mutanosiblik bilan bog‘laydi (Alexy, 2002).

Yettinchidan, samaradorlik mezoni. Qonun, organ, dastur yoki protseduraning formal mavjudligi uning inson huquqini real ta’minlayotganini avtomatik anglatmaydi. Agar shaxs huquqiy mexanizmdan amalda foydalana olmasa, murojaatga javob olish imkoniyati bo‘lmasa, sud qarori ijro etilmasa yoki belgilangan xizmat huquqiy natijaga olib kelmasa, majburiyatning formal institutsional ifodasi bilan uning real ijrosi o‘rtasida tafovut yuzaga keladi. Shu sababli davlat majburiyatining samaradorligi huquq egasi nuqtayi nazaridan ham baholanishi lozim.

Sakkizinchidan, shaxs uchun real huquqiy natija umumlashtiruvchi mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Bu har qanday individual istakni qondirish yoki davlatdan mutlaq natija talab qilish degani emas. Gap Konstitutsiya tan olgan huquqning shaxs uchun yuridik jihatdan amal qiladigan holatga aylanishi haqida ketadi. Masalan, murojaat qilish huquqining natijasi ariza qabul qilingani bilan emas, uning vakolatli organ tomonidan qonuniy va asoslangan tartibda hal etilgani bilan; sud himoyasining natijasi qaror qabul qilingani bilan emas, buzilgan huquqiy holatni real tiklash imkoniyati bilan; davlat xizmatining natijasi esa formal ro‘yxatga olish emas, qonunda nazarda tutilgan huquqiy ne’matga erishish bilan o‘lchanadi.

Shu asosda davlatning inson huquqlariga oid konstitutsiyaviy majburiyatlarini baholashning umumiy funksional mantig‘ini quyidagicha ifodalash mumkin. Avvalo, muayyan konstitutsiyaviy huquqdan davlatning aniq majburiyati kelib chiqadi. Ushbu majburiyat normativ va institutsional jihatdan konkretlashtiriladi, uni amalga oshirishga vakolatli subyekt hamda tegishli tartib-taomil belgilanadi. Keyin majburiyatning lozim darajada bajarilganligi va shaxs uchun real huquqiy natija yuzaga kelganligi baholanadi. Zarur hollarda esa nazorat, himoya va huquqni tiklash mexanizmlari ishga tushiriladi.

Mazkur yondashuv konstitutsiyaviy majburiyatning mazmuni va uni amalga oshirish jarayonini izchil baholash imkonini beradi. Shuningdek, u majburiyatni amalga oshirishning qaysi bosqichida huquqiy nuqson yuzaga kelganini va uning xususiyatini aniqlashga xizmat qiladi.

Konstitutsiyaning to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qilishi mazkur majburiyatlarning milliy huquq tizimidagi o‘rnini yanada kuchaytiradi. Biroq to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qilish prinsipini davlat organiga qonunda nazarda tutilmagan yangi vakolat yaratish huquqi sifatida talqin qilish mumkin emas. Aksincha, u mavjud vakolat qaysi konstitutsiyaviy maqsad, huquqiy chegara va qadriyatlar doirasida amalga oshirilishi lozimligini belgilaydi. Shu ma’noda Konstitutsiyaning to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qilishi yangi vakolat manbayi emas, mavjud ommaviy vakolatning konstitutsiyaviy sifati mezonidir (Republic of Uzbekistan, 2023; President of the Republic of Uzbekistan, 2023).

Davlat organi diskretsion vakolatga ega bo‘lgan holda ham ushbu vakolat inson huquqlaridan tashqarida amal qilmaydi. Qonun organga nima qilish mumkinligini belgilasa, Konstitutsiya bu vakolat qanday maqsad, prinsip va huquqiy chegaralar doirasida amalga oshirilishi lozimligini belgilaydi. Shu bois inson huquqlariga oid konstitutsiyaviy majburiyatlar davlat boshqaruviga tashqi ravishda qo‘shilgan cheklov emas, balki ommaviy vakolatni lozim darajada amalga oshirishning ichki huquqiy standarti sifatida qaralishi maqsadga muvofiq.

Bu yerda pozitiv majburiyatni ijtimoiy siyosat yoki proaktiv boshqaruv bilan ham aynanlashtirmaslik zarur. Pozitiv majburiyat davlat nima qilishi shartligini belgilaydigan yuridik kategoriyadir. Ijtimoiy yoki proaktiv siyosat esa mazkur majburiyatni qaysi tashkiliy usul, muddat va tashabbus asosida amalga oshirishni belgilaydigan boshqaruv shakli bo‘lishi mumkin. Shuning uchun har qanday ijtimoiy dastur konstitutsiyaviy majburiyat emas. Har qanday pozitiv konstitutsiyaviy majburiyat esa faqat yangi dastur yoki katta resurs talab qiladigan vazifa emas.

Davlat majburiyatlarining sud yoki boshqa huquqiy nazorat orqali tekshirilishi masalasida ham ehtiyotkorlik talab etiladi. Har bir konstitutsiyaviy maqsad bir xil darajada to‘g‘ridan to‘g‘ri sudda talab qilinadigan aniq majburiyatga aylanmaydi. Tekshirilish darajasi majburiyatning konstitutsiyaviy asosi, mazmunining huquqiy aniqligi, vakolatli subyektni belgilash imkoniyati, huquqqa ta’sirning xususiyati va sud nazoratining konstitutsiyaviy kompetensiyasi bilan bog‘liq. Sudning vazifasi davlat organi o‘rniga siyosiy yoki moliyaviy qarorni tanlash emas, balki tanlangan chora Konstitutsiya talab qiladigan minimal huquqiy standartdan chetga chiqqan-chiqmaganini baholashdir.

Shu nuqtayi nazardan, “konstitutsiyaviy majburiyatning minimal yuridik yadrosi” kategoriyasidan foydalanish mumkin. U qo‘shimcha qonunchilik konkretlashtirishi, resurs yoki maxsus institut talab etilgan hollarda ham Konstitutsiyadan bevosita kelib chiqadigan va butunlay inkor etilishi mumkin bo‘lmagan asosiy yuridik talablarni ifodalaydi. Mazkur yadro har bir huquqda bir xil bo‘lmaydi. Biroq inson qadr-qimmatini hurmat qilish, kamsitmaslik, huquqning mohiyatini yo‘qqa chiqarmaslik, qonuniy protsedura va samarali huquqiy himoyadan foydalanish imkoniyati kabi talablar ko‘p hollarda uning tarkibiy elementlari sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.

Yuqoridagi tahlil davlatning inson huquqlariga oid konstitutsiyaviy majburiyatiga mualliflik ta’rifini shakllantirish imkonini beradi. Bizningcha, davlatning inson huquqlariga oid konstitutsiyaviy majburiyati – Konstitutsiyada e’tirof etilgan huquq va erkinliklarni hurmat qilish, ularning buzilishining oldini olish, real amalga oshirilishi uchun zarur normativ, institutsional va protsessual shart-sharoitlarni yaratish hamda buzilgan huquqiy holatni samarali tiklashga qaratilgan, davlat va uning vakolatli subyektlari uchun yuridik jihatdan majburiy bo‘lgan faoliyat talabidir.

Mazkur ta'rifda majburiyatning yuridik manbayi – Konstitutsiya, uning adresati – davlat va tegishli vakolatga ega ommaviy subyektlar, mazmuni – asossiz aralashuvdan tiyilishdan tortib huquqni amalga oshirishga xizmat qiluvchi faol choralar va tiklashgacha bo'lgan yuridik vazifalar, yakuniy baholash mezoni – huquq egasi uchun Konstitutsiya nazarda tutgan real huquqiy imkoniyatning ta'minlanishi ekani aks etadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonda inson huquqlarini ta'minlashga oid davlat majburiyatlarini faqat siyosiy maqsad yoki umumiy davlat vazifasi sifatida talqin qilish yetarli emas. Konstitutsiyaning 20- va 54-moddalari inson huquqlarini davlat organlari faoliyatining mazmunini belgilaydigan bevosita huquqiy mezonga aylantirdi. "*Respect-protect-fulfil*" modeli ushbu munosabatni umumiy darajada tushuntirsa-da, milliy konstitutsiyaviy huquqda davlat majburiyatlarini tiyilish, muhofaza-profilaktik, normativ-institutsional, protsessual va himoya-tiklovchi turlarga ajratish ularning yuridik mazmunini aniqroq ochib beradi.

Bunday konstitutsiyaviy majburiyatning bajarilganligi faqat muayyan chora ko'rilganligi bilan baholanmasligi lozim. Bunda ko'rilgan choraning qonuniyligi, aniq vakolatli subyektga bog'langanligi, o'z vaqtidaligi, belgilangan maqsadga erishish uchun yaroqliligi, yetarliligi, oqilonaligi, mutanosibligi va samaradorligi hisobga olinishi zarur. Pirovardida esa davlat majburiyatining bajarilishi shaxs uchun real huquqiy natija yuzaga kelganligi nuqtayi nazaridan baholanishi kerak.

Shu ma'noda mazkur jarayon muayyan konstitutsiyaviy huquqdan davlat majburiyatining kelib chiqishi, uning normativ va institutsional jihatdan konkretlashtirilishi, majburiyatning lozim darajada bajarilishi hamda shaxs uchun real huquqiy natijaning ta'minlanishi bilan izohlanadi. Zarur hollarda ushbu jarayon nazorat, huquqiy himoya va buzilgan huquqni tiklash mexanizmlarini qo'llash bilan yakunlanadi.

REFERENCES

Airey v. Ireland, App. No. 6289/73 (ECHR Oct. 9, 1979).

Alexy, R. (2002). *A theory of constitutional rights* (J. Rivers, Trans.). Oxford University Press.

Committee on Economic, Social and Cultural Rights. (1990). *General comment No. 3: The nature of States parties' obligations (art. 2, para. 1, of the Covenant) (E/1991/23).* United Nations. https://www.refworld.org/legal/general/cescr/1990/129827

Fredman, S. (2008). *Human rights transformed: Positive rights and positive duties*. Oxford University Press.

Husanov, O. T. (2024). Konstitutsiya va inson huquqlari [Constitution and human rights]. *Society and Governance*, (4), 19–24.

Khazov, E. N. (2010). *Konstitutsionnye garantii prav i svobod cheloveka i grazhdanina v Rossii: teoreticheskie osnovy i problemy realizatsii* [Constitutional guarantees of human and civil rights and freedoms in Russia: Theoretical foundations and implementation problems]. YUNITI.

Lavrysen, L. (2016). *Human rights in a positive state: Rethinking the relationship between positive and negative obligations under the European Convention on Human Rights*. Intersentia.

Martzoukou, V. (2015). *Claims to resources and positive obligations under the European Convention on Human Rights* (Doctoral dissertation). University College London Discovery.

Minister of Health and Others v. Treatment Action Campaign and Others (No. 2), CCT 8/02, [2002] ZACC 15 (S. Afr.).

Mordovets, A. S. (1997). *Sotsialno-yuridicheskiy mekhanizm obespecheniya prav cheloveka i grazhdanina: teoretiko-pravovoe issledovanie* [Social and legal mechanism for ensuring human and civil rights: A theoretical and legal study] (Doctoral dissertation). Saratov State Law Academy.

Mowbray, A. R. (2004). *The development of positive obligations under the European Convention on Human Rights by the European Court of Human Rights*. Hart Publishing.

Öneryıldız v. Turkey [GC], App. No. 48939/99 (ECHR Nov. 30, 2004).

Osman v. the United Kingdom, App. No. 23452/94 (ECHR Oct. 28, 1998).

President of the Republic of Uzbekistan. (2023, May 8). *On priority measures for the implementation of the Constitution of the Republic of Uzbekistan in the new edition* (Decree No. DP-67). Lex.uz. https://lex.uz/docs/6461609

Republic of Uzbekistan. (2023). *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi* [Constitution of the Republic of Uzbekistan]. O'zbekiston.

Saidov, A. Kh. (2006). *Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq* [International human rights law]. Konsauditinform-Nashr.

Shue, H. (1996). *Basic rights: Subsistence, affluence, and U.S. foreign policy* (2nd ed.). Princeton University Press.

Tillaboyeva, M. B. (2024). *O'zbekiston Respublikasida davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida mas'ulligining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari* [Constitutional and legal basis of responsibility of state bodies and officials to society and citizens in the Republic of Uzbekistan] (Doctoral dissertation). Karakalpak State University.

United Nations Human Rights Committee. (2004). *General comment No. 31 (80): The nature of the general legal obligation imposed on States parties to the Covenant (CCPR/C/21/Rev.1/Add.13).* https://digitallibrary.un.org/record/533996?v=pdf

United Nations. (1966a, December 16). *International Covenant on Civil and Political Rights*. Lex.uz. https://lex.uz/docs/-2640479

United Nations. (1966b, December 16). *International Covenant on Economic, Social and Cultural Rights.* Lex.uz. https://lex.uz/acts/2686000

Xenos, D. (2012). *The positive obligations of the state under the European Convention of Human Rights*. Routledge.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2026-YIL 5-SON

VOLUME 6 / ISSUE 5 / 2026

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.65

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence